

МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



Илимий-методикалық журнал

2024

4/4-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис



KORREKSION ISH DASTURINI ISHLAB CHIQISH. SHAXS FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Xalmatova D.A.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: shaxs, faoliyat, inson kapitali, psixologik ta'sir, psixokorreksiya metodlari, psixofiziologik metodlar, samaradorlik, texnologiya.

Ключевые слова: личность, деятельность, человеческий капитал, психологическое воздействие, психокоррекционные методы, психофизиологические методы, эффективность, технология.

Key words: personality, activity, human capital, psychological influence, psychocorrective methods, psychophysiological methods, efficiency, technology.

Hozirgi kunda shaxs va uning faoliyati, shaxsning ta'lim-tarbiyasini tashkil etish kabi masalalar eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Chunki, inson kapitali har bir davlat kelajagi va ravnaqi uchun, insonlarning farovon turmush kechirishlari uchun xizmat qiladi. Jamiyatdagi har bir insonnning har tomonlama yetuk rivojlanishi o'z navbatida butun jamiyatning so'g'lom bo'lishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham hozirgi kun pedagog, psixolog va sotsioglarning asosiy vazifasi har bir shaxsning rivojlanishi uchun qulay psixologik shart-sharoitlarni yaratib berish hisoblanadi. Korreksion dastur esa mavjud muammmolarni hal qilishning eng samarali usullaridan biridir. Korreksion dastur muammoning butunlay hal bo'lishini oldiga maqsad qilib qo'ymaydi, balki samarali ish olib borishda muammolarning yo'qolishi va yechilishiga har tomondan baho berilayotganiga ham qaraladi. Masalan: mijoz uchun dasturda ishtirok etayotgan vaqtida uning emotsiional holatining yaxshilanishi, ijobjiy his qilishi bilan belgilanadi. Psixolog uchun korreksion dastur tashkil etilishi, majburiyatni his etishi oldiga qo'yilgan vazifani bajarilishi bilan aniqlanadi. Mijozning yaqinlari uchun esa, mijozda paydo bo'lgan muammoning qay tarzda ijobjiy hal etilganligi bilan aniqlanadi.

Korreksion dasturlarning ijobjiy ta'sir doirasi uning intensivligidadir. Korreksion mashg'ulotlar 1-1,5 soatdan oshmasligi, olib borilayotgan o'yinning ma'no jihatdan o'yanganligi bilan ham bog'liq. Mashg'ulotlar tugagandan keyin ham iloji boricha mijozning taraqqiy etishi bilan qiziqib borish muloqotni yo'qotmaslik 1,2 oyda 1 marotaba uchrashi lozim. Korreksion dasturlar qancha erta aniqlanib ish boshlansa shuncha tez samara beradi. Korreksion tadbir so'ngida korreksion dasturning samaraliligi, maqsad va vazifalarining bajarilganligiga baho beruvchi xulosa hisobot tayyorlanadi.

Psixokorreksion tadbirlarning samaraliligini baholash quyidagicha mezonda aniqlanadi:

A) rivojlanishdagi qiyinchilikning yechilishi barham topishi.

B) maqsad va vazifalarning belgilanishi korreksion effektivligi uzoq muddatdan so‘ng ish davom etayotganda, oxirida aniqlanadi.

Psixokorreksion dasturlarning samaraliliginu aniqlovchi omillar bevosida mijoz hamda psixologning kutgan natijalari bilan bog’liqdir. Shuningdek, mijozning mavjud muammolardan halos bo’lishi, mijoz muammosining xarakteri, mijozning birgalikdagi faoliyatga tayyorligi kabi omillar ham samaradorlikni belgilovchi omillar sirasiga kiradi. Dasturning samaradorligini ta’minlovchi yana bir omil bu korreksion tadbirni o’tkazayotgan psixologning shaxsiy va professional tayyorgarlidir. Chunki dastur nazariy jihatdan qanchalik mukammal tuzulgan bo’lmashin uning samaradorligi bevosita psixologning amaliy faoliyati, dastur asosida ishni tashkil eta olishi, mijozga real ta’sir ko’rsata olishi bilan belgilanadi.

Psixokorrektsiyaning samarasi konkret metod va ta’sir etuvchi xususiyatdan aniqlanadi. Psixokorreksion yordamning samaraliligiga baho berish borgan sari aktuallashmoqda. Bu psixologning ta’sir eta olishi va korreksion ishning sifatliligidandir. Ishning samaraliliginu baholashda aniq metodni belgilab olish zarur. Korreksion ishda ma’lum bir metodni oldindan tanlash qiyin, chunki ish faoliyatida psixologlar turli metodlardan foydalanadilar. Hatto bir metod har xil mutaxassisda har xil natija beradi. Ishning bahosini bu metoddan xabari bo’lmagan ekspert berishi zarur. Psixologning tarbiyaviy-ta’limiy sifatini hisobga olish kerak. Psixologning kasbiga bo’lgan qiziqishini hisobga olish zarur.

Guruhiy korreksion ishda psixologning professional bo’lishi katta ahamiyatga ega. Chunki mijozlar bilan guruhiy ish olib borilganda, har bir mijozning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish, guruhiy ta’sirining har bir jihatiga alohida ahamiyat berish lozim. Aynan shu xususiyat ham psixokorreksion dastur shaxs faoliyati samaradorlini oshiruvchi eng qulay va samarador texnologiya ekanligini belgilaydi. Chunki shaxs faoliyati bevosita jamoada amalga oshadi, bu esa shaxsdan ijtimoiy ko’nikma va malakalarni talab qiladi. Guruhiy psixokorreksion ishlar shaxsda ijtimoiy malaka va ko’nikmalarni shakllantirishning eng qulay usullaridan biridir.

Pxikorreksion dasturning amaliy ahamiyati haqida so’z ketganda, unda qo’llaniladigan metodlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Psixokorreksiya jarayonida qo’llaniladigan asosiy metodlarga quyidagilar kiradi: artterapiya, o’yin terapiysi, psixogimnastika, biblioterapiya, raqs terapiysi, ertak terapiysi, psixodramma, logoterapiya va boshqalar. Ushbu metodlarni korreksion dastur doirasida o’z o’rnida qo’llay olish shaxs faoliyati samaradorligiga tez va oson ta’sir ko’rsatishni ta’minlaydi. Umuman olganda korreksion metodlar psixologning asosiy ish quroli hisoblanadi, desak mubolag’a bo’lmaydi.

Psixokorreksion ishlarda mijoz psixologik ta’siridan so‘ng quyidagilarga qarab baholanadi: Ichki kechinmalarining sub’ektiv mohiyatining o’zgarganligi.



Ta'sir etgandan so'ng mijozning ijobiy tomonga o'zgarishi. Psixologik ta'sirning samarasini belgilashda psixofiziologik metodlar ishlatalish mumkin. Ular insonning vegetativ-somatik fiziologik va psixik funktsiyalarini baholaydi. Psixokorreksion ta'sirning samaraliligi kriteriysi har bir shaxsdagi salbiy o'zgarishlarni aynan uni o'ziga xos ekanligini hamda tanlangan psixokorreksion metodlar ta'siri shu o'zgarishlarga qaratilganligini hisobga olish bilan bog'liqdir.

Shaxsiy faoliyat samaradorligini oshirish texnologiyasi bir necha fazadan iborat bo'lib, o'quvchilar bilan korreksion-rivojlantiruvchi tadbirlarni boshlashga tayyorgarlik ko'rish fazasi, bevosita korreksiya (rivojlantirish) fazasi hamda korreksiya ishlarini yakunlash fazasini o'z ichiga oladi. Ushbu fazalarning barchasi o'zaro bog'liq bo'lган va mantiqiy ketma-ketlikda joylashgan tarkibiy qismlardan, ushbu qismlar maxsus tashkil qilinadigan tadbirlardan iborat bo'ladi. Korreksion tadbirlar, o'z navbatida bosqichmabosqich va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etiladi. Bu esa bevosita korreksion ishning samarasini, mijozlarga pedagogik-psixologik ta'sirning izchil va uzliksiz bo'lishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkunki, psixokorreksion dastur shaxsning pedagogik-psixologik jihatdan rivojlanishida, uning ta'lim-tarbiya olishi uchun optimal ichki va tashqi psixologik shart-sharoitlarni yaratishda muhim o'rinn tutadi. Shaxs samaradorligini oshiruvchi texnologiyalarning amaliy ahamiyati o'quvchilar bilan tashkil qilinadigan korreksion chora-tadbirlarda qo'llaniladigan metod va usullar, ularning qo'llanish vaqtiga shakli, korreksion ishlarga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, mijozning ichki imkoniyatlari, korreksion chora-tadbirlarni tashkil etuvchi psixologning shaxsiy va kasbiy tayyorgarligi bilan belgilanadi.

РЕЗИОНЕ

Ushbu maqolada korreksions dasturni ishlab chiqish, uning psixolog faoliyatidagi amaliy ahamiyati, shaxs va uning faoliyati samaradorligini oshirishda psixokorreksion dasturning o'rni, mijozga psixokorreksion ta'sir ko'rsatish metodlari haqida so'z boradi. Shuningdek, psixokorreksion dastur tuzishda ahamiyat berilishi lozim bo'lgan jihatlar, uning samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, psikorreksion dastur samaradorligini belgilovchi mezonlar kabi masalalarga alohida to'xtalib o'tilgan.

РЕЗИОНЕ

В данной статье говорится о разработке коррекционной программы, ее практическом значении в работе психолога, роли психокоррекционной программы в повышении эффективности человека и его работы, методах психокоррекционного воздействия на клиента.

SUMMARY

This article talks about the development of a correctional program, its practical importance in the work of a psychologist, the role of a psychocorrective program in improving the effectiveness of a person and his work, and methods of psychocorrective influence on a client. Also, issues such as aspects that should be given importance in creating a psychocorrective program, factors influencing its effectiveness, and criteria determining the effectiveness of a psychocorrective program have been specifically addressed.



BO'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINING KASBIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH MEZONLARI

Muslimov Sh.N.

T.N. Qori niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti PhD dotsent

Tayanch so'zlar: kasbiy sifat, maxorat, ta'lism, psixologik, shakllantirish, texnologik ta'lism, mezon.

Ключевые слова: профессиональное качество, мастерство, образование, психологическое, формирующее, технологическое образование, критерий.

Key words: professional quality, skill, education, psychological, formative, technological education, criterion.

Oliy ta'lim muassasalarida yoshlarning shaxsiy rivojlanishi ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik, faollik, munosabatlarining chuqurlashib hamda boyib borishi, xarakter hamda dunyoqarashlarining turg'unligi, o'z-o'zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojlarning shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflandi. Bo'lajak kasb egalari uchun ta'lism muassasalarida ta'lism olish jarayoni – bu insonda mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda ahamiyatli sanalgan kasbiy bilim, sifat, kompetentlik va mezonlar asosida rivojlanadirish hamda o'z-o'zini takomillashtirishning eng maqbul davridir.

Bir qator maxsus tadqiqotlarda alohida sifatlar: pedagogik fikrlash, pedagogik kuzatuvchanlik, pedagogik bashoratlash kabilarning mohiyati o'rganilgan. Tadqiqotchilar pedagogik faoliyat uchun muhim bo'lgan psixologik sifatlarni qarab chiqish bilan birga ularni shakllantirish hamda rivojlanadirishga oid yondashuvlarni ham bayon qilganlar.

Jumladan, o'qituvchida o'z-o'zini boshqarish, qat'iylik, jur'atilik, qo'rmaslik; atrofdagi insonlarga hurmat va e'tibor, kamchiliklarini his qilgan holda o'z imkoniyatlariga ishonishi, o'z-o'zini faoliyatini baholashda haqqoniylik; kuchli iroda, o'z kuch-quvvatini yo'naltira olish; faoliyat va maqsadni amalga oshirish yo'lida o'z imkoniyatlarini jamlay olish; belgilangan maqsadni amalga oshirishda o'z faoliyatini boshqarib borish; aqliy faollik va o'zgaruvchan sharoitlarda o'z